ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 11

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.11.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.11.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

AMANOV ABDIJABBOR SATTAROVICH
Murakkab sintaktik tuzilmalar haqida 7

УСМОНОВА ШАҲОДАТ
Газета дискурсида таржима масаласи: Трансформацион таҳлил 11

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod uslubiy bayonida antropomorf metaforalarning voqelanishi 16

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Tilning mohiyati va vazifalarini yuzaga keltirishda uslubiyatning o‘rni 19

ИБАТОВА АМИРА ШАВКАТОВНА
Лексика – тилдаги барча сўзларнинг йиғиндиси 23

NABIYEVA RUSHANA JAMOL QIZI
O‘zbek tilidagi yangi oziq-ovqat o‘zlashmalarining leksikografik tavsifi masalalari:
Muammo va vazifalar 26

NABIYEVA PARVINA AKBARJANOVNA
Jahon tilshunosligida tezaurus tushunchasi va uning tadqiqi 30

MUXAMMADIYEV NODIR RUSTAMZODA
Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalariga fors-tojik
va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tahlili 35

ASATULLAYEVA DILNAVOZ JONDULLAYEVNA
Morfonologik hodisalar va ularning Buxoro viloyati o‘g‘uz shevalarida uchrashi 39

ABDULLAJONOVA MADINA TO‘LANBOY QIZI
Yozma nutq shakllanishi va rivojlanishining psixolingvistik tahlili 42

NAZARMATOVA KUMUSH FARHODOVNA
O‘zbek tilida komplimentlarning lingvopragmatik tahlili
(O‘. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari misolida) 46

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
«Devonu lug‘otit-turk» asarida qo‘llangan taom nomlarining qiyosiy tadqiqi 50

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Lexical composition of scientific prose 53

НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА РАДЖАПОВА
Гендерная лексика в туркменском языке 56

МУНДАРИЖА

ТОЙЧИЕВА НАСИБАХОН СУРАНБАЕВНА
Сходства и различия в процессе формирования терминологии
бытовой лексики в узбекском и русском языках 58

BOBOMUROTOV FARRUKH,
DAVLYATOVA ELVIRA MURATOVNA
The problems of reconstruction aphoristic prose of e. M. Remarque in uzbek translations..... 64

НАЗАРОВА МАНЗУРА НАСРУЛЛАЕВНА,
БАХТИЁРОВ ШОХЖАХОН
Роль речи в развитии мышления..... 68

QAHRAMONOV ISLOM BOTIR O‘G‘LI
DAVLYATOVA ELVIRA MURADOVNA
The problems of thematic classification of
military terms in english and uzbek languages..... 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий ва шайх Саъдий..... 75

МУСТАФОҚУЛОВ РЎЗИҚУЛ БОЙНАЗАРОВИЧ
Мангу барҳаёт сиймо..... 78

ТОИРОВА ДИЛФУЗА ФАЙЗУЛЛАЕВНА
Эстетика запада и востока в творчестве Гюстава Флобера..... 83

TAJIBAYEVA DILFUZA ERKINOVNA
Poetik timsol yaratishda oq rang tasviri 86

МУСИНОВА ЗЕБО ТУРАБОВНА
Разоблачение роковых последствий в историческом
Романе эжена сю «жан кавалье» 88

MANSUROVA UMIDAXON IBROHIMOVNA
Badiiy asarda biografik tasvirning o‘rni 92

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA
Tasavvufiy timsollar va she’riyat 96

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA
Sirojiddin Sayyid ijodidan bir g‘azal tahlili..... 98

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 11
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

POETIK TIMSOL YARATISHDA OQ RANG TASVIRI

Tajibayeva Dilfuza Erkinovna,
Namangan davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Poetik timsol orqali biz tabiat va jamiyatdagi mavhum tushunchalarni jonli tasavvur qila olamiz. Ijodkor badiiy adabiyotning tasvir obyekti bo'lgan inson hayotini umumlashtirib tasvirlaydi va o'zining badiiy-estetik ideallari, xayollari, o'y-kechinmalari va tafakkuridagi shuurni poetik timsollar yordamida yuzaga chiqaradi. Badiiy asarda borliqdagi voqea-hodisalarni jonlantirish, o'xshatish, qiyoslash va ulardagi insonga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishida ham poetik timsol muhim rol o'ynaydi.

Xurshid Davronning ilk kitobi «Qadrdon quyosh» to'plamidayoq shoirning o'ziga xos uslub qirralari ko'rina boshlaydi. Uning she'rlarida beg'ubor bolalikning oppoq xotiralarini unuta olmagan va asta-sekinlik bilan katta hayot yo'liga qadam qo'yayotgan o'spirinning dunyoga munosabati ifodalanadi:

Oppoq edi boshda bu dunyo:
Ko'cha oppoq, kechalar oppoq,
Qanday yaxshi ekan bolalik,
Oppoq ranglar bilan yashamoq.[1]

Oq rang – poklik, beg'uborlik ramzi. Inson go'daklik chog'ida hech narsani anglamasligi mumkin, biroq bolalik davrida dunyoga o'zgacha nigoh, shirin orzular bilan nazar tashlaydi. Bolalik davrida inson ko'ngli toza, samimiy tuyg'ular ila oshno bo'ladi. Shuning uchun ham juda ko'p o'rinlarda insonlar tomonidan «oppoq bolalik» so'z birikmasi qo'llaniladi. She'rda dunyoning, ko'cha va kechalarning oppoq rangdaligi, beg'ubor bolalikning inson hayotidagi eng qadrli onlar ekanligi ishonarli tasvirlangan. Hech qanday g'arazlar va xusumatlarsiz, faqat yaxshi umidlar sari intilayotgan bolalikning majoziy timsoli ifodalanadi.

Xurshid Davron «To'marisning ko'zlari» nomli she'riy to'plamini to'rt qismga bo'lib nomlaydi. «Bahor» deb nomlangan qismiga kirgan «Yaylov uzra kecha» deb boshlanuvchi she'rida yaylovdagi bir kechaning go'zal manzarasi oq ranglar bilan chizib beriladi. Shoir yangi oyning charaqlab turishi, oq biyaning kishnashi, qirovrang toychoqning shodligi, daraxt butog'idan taralayotgan xushbo'y isning tarashi kabilarda ifoda etish uslubidan mohirona foydalanadi. Ijodkor yangi oy – hilol poetik timsolini ham oq rangda, biyani ham oq rangda, toychoqni ham qirovrang, ya'ni oq rangda chizadi. Bu manzaralar rassomning qog'ozga chizilgan suratidek ko'z oldingizda namoyon bo'ladi:

Yaylov uzra kecha...
Hilol charaqlar...
Oq biya boshini ko'tarar kishnab –
Ko'zi yaraqlar...
Yashashdan mast go'yo
Qirovrang toychoq...
Cheki yo'q kechani
Zabt etib borar
Xushbo'y bir butoq.[2]

Shoir kecha tasvirida Chayqalar kemadek oppoq na'matak kabi o'xshatish ifodasida ham oq rangdan foydalanadi. Xush isli shamollar ko'ksini teshib Shabnam tomadi... kabi jonlantirishdan o'rinli foydalanadi. «Shabnam»ning rangi ham oq tusli ekanligi ma'lum. She'rda «qirovrang toychoq»ning «shataloq otib» chopib yurishi, butoqning shivirlashi kabi tasvirlarda yer yuzida bahor faslining hukmronligi aks etadi. Bu o'rinda ifoda etish uslubi asta-sekin rivojlanib boradi va so'nggi misradagina yaylov uzra bahor kechayotganligi tasvirlanadi:

Yaylov uzra kecha...
Bahor...
Oy...
Adir...
Titrab- titrab bo'yin tomirigacha
Otlar o'tlayotir... [3]

Bahor yangi hayot boshlanishi. Yer yuzidagi mavjud qurt-qumursqadan tortib, ongli mavjudot – insonlargacha bahorni xursandchilik bilan olqishlaydi. Ona tabiatning bir qismi hisoblangan otlar, toychoq, adir, kichik bir butoq kabi misollarda bahorni, yaylovni sog'ingan poetik timsollarni ko'rish mumkin.

[1] Хуршид Даврон. Қадрдон қуёш. – Тошкент: Ғ.Ғулом нашриёти, 1979. – Б. 5.

[2] Хуршид Даврон. Тўмариснинг кўзлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1984. – Б.12.

[3] Хуршид Даврон. Тўмариснинг кўзлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1984. – Б.12.

Xurshid Davron she'riyatida oq rang bilan bog'liq ramziy-majoziy poetik timsollarni ko'plab uchratamiz. Uning «Qadrdon quyosh» to'plamiga kirgan quyidagi she'rga e'tiborni qarataylik:

Dalalarning qoq o'rtasida
Yeru osmon aro bir ertak –
Yulduzlarning mayin sasidan
Tebranadi oppoq belanchak.
Uxlab qolar horigan ota,
Uxlab qolar terimchi suluv.
Uxlab qolar chorbog' ortida
Ariqchada jildiragan suv.
Faqat qora ko'zlarin ochib,
Hayrat bilan to'lganda quchoq,
Onasiga o'xshatib oyni
Talpinadi oyday chaqaloq.[1]

Dalalarda belanchak yasalishi o'zbek onalari uchun oddiy holatga aylanib qolgan. Ayniqsa, mustabid tuzum davrida paxta yetishtirish, uni yig'ishtirib olish eng muhim siyosiy masala darajasiga ko'tarilgan. Kuz mavsumida paxta terishga barcha kasb egalari safarbar etilgan. Paxtakorning kuni qishgacha dalada o'tgan. Shu ma'noda dehqonning farzandlari ham dalada katta bo'lishgan. Shoir bunday go'zal manzarani «Er-u osmon aro bir ertak,» deya ta'riflaydi. Terimchi ayollar arqonga oq bo'zlar tortib, belanchak yasab, bolalarini shu belanchakda uxlatganlar. Oppoq belanchak ichida yotgan go'dak beg'ubor, begunoh. Ota ham, ona ham charchab uxlab qolganlarida go'dak oyni onasiga o'xshatib, unga talpinayotgan holati tasvirlanadi. Bu o'rinda oq rang beg'uborlik, tozalik timsoli sifatida gavdalanadi. To'plamning «Kuz» deb nomlangan qismi shunday boshlanadi:

Mezon kechdi.
Qanday shoshib kechdi bu mezon.
Hosil to'la aravasi loylarga botib
Sochi oqardi .[2]

Shoir bu she'rda qo'llagan oq rang, ya'ni sochning oqarishi majoziy ma'noda bo'lib, kuzga nisbatan qo'llanilmoqda. Sochning oqarishi, ko'pincha, yosh o'tishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun keksalarga nisbatan ishlatiladi. Bu o'rinda «mezon»ning juda tez o'tib borayotgani va «sochi oqar»gani (keksaygani) ifodalanadi.

Shavkat Rahmon she'riyatida oq rangning turli ko'rinishlari uchraydi. Erta bahorda o'riklarning oppoq gullarga burkanishi shoir hayratini oshiradi. Bu oqlikni shoir «oq bulutlar»ga ham o'xshatadi. O'rik gullarining oqligidan butun vodiy oq mash'alalar ekib qo'yilganidek ko'rinadi. Shoir tasavvuridagi oq rang – beg'uborlik, hayrat, ertangi kunga ishonch g'oyalari bilan sug'orilgan:

Oq bulutlar yerga qo'ndimi,
mo'jizalar bo'ldimi sodir?
Oh, naqadar ajoyib tunda
Oq mash'ala ekilgan vodiy .[3]

Shoir ijodida O'sh tog'larining go'zal manzaralari alohida o'rin tutadi. Uning «O'shkent lahzasi» nomli she'rida ham viqorli, qorli cho'qqilar haqida gap ketadi. Shoir bu o'rinda oq va moviy rang tasvirlarini chizadi:

Oq cho'qqilar,
shavaqi soylar
yaxshilikka ko'milgan mohtob.
Moviy osmon yoyilmasida
suzar ulkan olmaday oftob .[4]

«Oq cho'qqilar» bilan yonma-yon ma'noni kuchaytirish maqsadida «mohtob», ya'ni oppoq, oydin kecha suvratini chizadi. Osmon tasvirida esa moviy rang ifodasini qo'llaydi. Moviy rang bilan oftob rangining uyg'unligidan go'zal manzara ko'z oldingizda jonlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xurshid Davron she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy-majoziy timsollarning turli xil ko'rinishlari mavjud. Oq rang – poklik, beg'uborlik anglatadi. Shavkat Rahmon she'riyatida an'anaviy ramziy ranglarning o'zgacha ma'nolari kashf qilinadi. Oq rang – samimiylik tuyg'ularini ifodalab keladi.

Rezyume. Maqolada XX asr o'zbek she'riyatining iqtidorli vakillaridan Shavkat Rahmon va Xurshid Davron she'riyatidagi rang bilan bog'lik poetik timsollar ifodasi tahlilga tortilgan.. Oq rang poetik timsol yaratish vositasi sifatida tadqiq etilgan.

Resume. The article analyzes the expression of poetic symbols related to color in the poetry of Shavkat Rahman and Khurshid Davron, two talented representatives of Uzbek poetry of the 20th century. White color is studied as a means of creating poetic symbols.

Резюме. В статье анализируется выражение поэтических символов, связанных с цветом, в поэзии Шавката Рахмана и Хуршида Даврона, двух талантливых представителей узбекской поэзии XX века. Белый цвет изучается как средство создания поэтических символов.

[1] Хуршид Даврон. Қадрдон қуёш. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б.12.
[2] Хуршид Даврон. Тўмариснинг кўзлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1984. – Б.63.
[3] Шавкат Раҳмон. Юрак қирралари. – Тошкент: Ғ.Ғулом нашриёти, 1981. – Б.31
[4] Шавкат Раҳмон. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.14.